

“YOSHLAR MA’NAVIY TARBIYASIDA TA’LIM TIZIMINING O’RNI”

Hamidov Bekzod Toshpo’lot o’g’li*Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo’nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yoshlar ma’naviy tarbiyasini shakllantirishda ta’lim tizimining o’rni, uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati hamda zamonaviy sharoitdagi dolzarb muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Bugungi globallashuv jarayonida yosh avlod ongiga turli g’oyaviy va axborot ta’sirlari kuchayib borayotgan bir sharoitda ularning ma’naviy immunitetini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ta’lim tizimi nafaqat bilim beruvchi, balki shaxsni har tomonlama barkamol etib tarbiyalovchi muhim ijtimoiy institut sifatida qaraladi.*

Kalit so’zlar: *ma’naviy tarbiya, yoshlar, ta’lim tizimi, ma’naviyat, ma’rifat, milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, ijtimoiy muhit, ijtimoiy-gumanitar fanlar, globallashuv, axborot ta’siri, internet, ijtimoiy tarmoqlar, pedagogik yondashuv, barkamol shaxs, kompetensiya, tarbiya jarayoni.*

Аннотация: *В данной статье научно и теоретически анализируется роль системы образования в формировании духовного воспитания молодежи, ее значение для развития общества и актуальные проблемы в современных условиях. В условиях современной глобализации, когда на умы молодого поколения оказывают все большее влияние различные идеологические и информационные факторы, укрепление их духовного иммунитета является одной из неотложных задач. С этой точки зрения, система образования рассматривается как важный социальный институт, который не только предоставляет знания, но и всесторонне воспитывает человека.*

Ключевые слова: *духовное воспитание, молодежь, система образования, духовность, просвещение, национальные ценности, патриотизм, социальная среда, социально-гуманитарные науки, глобализация, влияние информации, Интернет, социальные сети, педагогический подход, гармоничная личность, компетентность, образовательный процесс.*

Abstract: *This article scientifically and theoretically analyzes the role of the education system in the formation of the spiritual education of young people, its importance in the development of society, and its current problems in modern conditions. In the current globalization process, when various ideological and informational influences on the minds of the younger generation are increasing, strengthening their spiritual immunity is one of the urgent tasks. From this point of view, the education system is considered an important social institution that not only provides knowledge, but also comprehensively educates a person.*

Keywords: *spiritual education, youth, education system, spirituality, enlightenment, national values, patriotism, social environment, social and humanitarian sciences,*

globalization, information influence, Internet, social networks, pedagogical approach, harmonious personality, competence, educational process.

KIRISH

Yosh avlod har qanday jamiyatning kelajagini belgilovchi eng muhim kuch hisoblanadi. Ularning qanday ruhda tarbiya topishi, qanday qadriyatlarni o'zlashtirishi va hayotga qanday qarash bilan kirib kelishi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir.

Shu bois yoshlar ma'naviy tarbiyasi masalasi har doim dolzarb bo'lib kelgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Bu jarayonda ta'lim tizimi yetakchi o'rin tutadi, chunki inson ongining shakllanishi aynan ta'lim muassasalarida tizimli va maqsadli ravishda amalga oshiriladi.

Ma'naviy tarbiya deganda insonning ichki dunyosini boyitish, unda ezgulik, halollik, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarni shakllantirish tushuniladi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng ta'lim tarbiyaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (1997) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi (1997) qabul qilindi.

Ushbu hujjatlar ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimini yaratishga xizmat qildi. Inson huquqlari, erkinlik, bag'rikenglik, tinchlikparvarlik kabi tushunchalar bugungi globallashuv davrida ayniqsa muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasalari bu qadriyatlarni targ'ib etish orqali yoshlarni keng dunyoqarashga ega, boshqalarga hurmat bilan qaraydigan shaxslar etib tarbiyalaydi. Ma'naviy tarbiyada o'qituvchining o'рни alohida ta'kidlanadi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi hamdir.

Uning shaxsiy namuna ko'rsatishi, odobi, muomalasi, adolatli va mehribon bo'lishi o'quvchilar uchun katta ta'sir kuchiga ega. Yoshlar ko'pincha o'z ustozlariga taqlid qiladi, ularning so'zlari va xatti-harakatlaridan o'rnak oladi. Shuning uchun o'qituvchi shaxsining ma'naviy barkamolligi ta'lim tizimining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ta'lim tizimida tarbiya va ta'lim bir-biridan ajralmas holda olib borilishi zarur. Faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolish yoshlarni to'laqonli shaxs sifatida shakllantirish uchun yetarli emas.

Bilim ma'naviyat bilan uyg'unlashgandagina jamiyat uchun foydali insonni tarbiyalash mumkin. Shu sababli dars jarayonlarida faqat nazariy bilimlar emas, balki hayotiy misollar, axloqiy xulosalar ham keng qo'llanilishi lozim. Bugungi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi yoshlar ma'naviy tarbiyasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali turli xil axborotlar tez va oson tarqalmoqda.

Bu jarayonda ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan axborotlar ham mavjud. Ta'lim tizimi yoshlarni axborotni to'g'ri tanlay olishga, tanqidiy fikrlashga o'rgatishi zarur. Bu esa ularning ma'naviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'z nutqlarida: "Farzandlari bilimli, iste'dodli, o'zining kuchi va salohiyatiga ishonib, oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning istiqboli, albatta, yorug' bo'ladi" deb, takidlaydilar. Shuningdek, ta'lim muassasalarida turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarning o'tkazilishi ham yoshlar ma'naviy tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Kitobxonlik kechalari, ijodiy uchrashuvlar, teatr va muzeylarga sayohatlar yoshlarning estetik didini rivojlantiradi, ularni go'zallikni anglashga o'rgatadi.

Bunday tadbirlar orqali yoshlar bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga o'rganadi va turli zararli odatlardan uzoq bo'ladi. Oila va ta'lim tizimi o'rtasidagi hamkorlik ham ma'naviy tarbiyada muhim ahamiyatga ega. Agar maktab va oila bir yo'nalishda ish olib borsin, tarbiya samarasi yanada yuqori bo'ladi. Ota-onalar farzandining ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, uning qiziqishlari va muammolariga befarq bo'lmasligi lozim. Ta'lim muassasalari esa ota-onalar bilan doimiy aloqada bo'lib, ularni tarbiya jarayoniga jalb etishi zarur.

Yoshlar ma'naviy tarbiyasida milliy g'oya va mafkuraning o'рни ham katta. Ta'lim tizimi orqali yoshlar ongiga Vatanga sadoqat, mustaqillikni asrab-avaylash, jamiyat rivojiga hissa qo'shish kabi tushunchalar singdiriladi. Bu esa ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishga undaydi. Bugungi globallashuv davrida yoshlar turli xil axborot oqimlari ta'sirida yashamoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat yoshlar ongiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonning ijobiy jihatlari bilan birga salbiy tomonlari ham mavjud.

Yoshlar ba'zan yot g'oyalar, zararli odatlar va noto'g'ri qarashlar ta'siriga tushib qolishi mumkin. Shu sababli ta'lim tizimi yoshlarni tanqidiy fikrlashga o'rgatishi, ularni axborotni to'g'ri tahlil qilishga va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirishi zarur. Bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirish, uning mazmunini boyitish orqali yoshlar ma'naviy tarbiyasini yanada rivojlantirish mumkin. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv usullardan foydalanish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv yoshlarning nafaqat bilim darajasini, balki ma'naviy salohiyatini ham oshiradi.

Ma'naviyat insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng muhim jihatlardan biri bo'lib, u insonning vijdoni, or-nomusi, e'tiqodi va qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Yoshlar ma'naviy tarbiyasi esa aynan shu fazilatlarni yosh avlod ongiga singdirish orqali ularni komil inson qilib tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ta'lim tizimi yoshlar ma'naviy tarbiyasining eng muhim instituti hisoblanadi. Chunki yoshlar hayotining katta qismi maktab, litsey, kollej va oliy ta'lim muassasalarida o'tadi. Bu davrda ular nafaqat ilmiy bilimlar oladi, balki hayotiy qarashlarini shakllantiradi, o'ziga xos dunyoqarashga ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida beriladigan bilimlar yoshlarning tafakkurini rivojlantiradi, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi va shu bilan birga ma'naviy qadriyatlarni anglashga yordam beradi. Ta'lim va tarbiya bir-biridan ajralmas tushunchalardir.

Agar ta'lim faqat bilim berish bilan cheklanib qolsa, u kutilgan natijani bermaydi. Bilim ma'naviyat bilan uyg'unlashgandagina haqiqiy kuchga aylanadi.

Shu bois ta'lim tizimida har bir fan, har bir dars nafaqat bilim berishga, balki tarbiyaviy maqsadga ham xizmat qilishi lozim. Ayniqsa, adabiyot, tarix, ona tili kabi fanlar yoshlar ma'naviy dunyosini boyitishda alohida o'rin tutadi. Bu fanlar orqali yoshlar o'z xalqining o'tmishi, madaniyati, qadriyatlari bilan tanishadi va ularga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

Yoshlar ma'naviy tarbiyasida o'qituvchining o'rni beqiyosdir. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki murabbiy va tarbiyachi hamdir. Uning shaxsiy fazilatlari, muomalasi, odobi va hayotiy qarashlari o'quvchilarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yoshlar ko'pincha o'qituvchini o'ziga namuna sifatida qabul qiladi. Shu sababli o'qituvchi doimo o'z ustida ishlashi, ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishi va yoshlarga ibrat bo'la olishi zarur.

Milliy qadriyatlar yoshlar ma'naviy tarbiyasining muhim tarkibiy qismidir. Har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlar, an'analari va madaniy merosi mavjud bo'lib, ular asrlar davomida shakllangan. Yoshlarni ana shu qadriyatlar asosida tarbiyalash ularning milliy o'zligini anglashiga, o'z xalqiga bo'lgan hurmat va sadoqatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlar yoshlarni ma'naviy jihatdan boyitadi, ularni yot g'oyalardan himoya qiladi va mustahkam hayotiy pozitsiya shakllantiradi. Ta'lim muassasalarida olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlar yoshlar tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Turli tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, kitobxonlik kechalari yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ularni ijtimoiy hayotga faol jalb etadi. Bunday tadbirlar yoshlarni fikrlashga, o'z fikrini erkin bayon etishga va jamiyatdagi o'z o'rnini anglashga yordam beradi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (2020) qabul qilindi. Unda uzluksiz ta'lim tizimi yanada takomillashtirildizamonaviy ta'lim shakllari (masofaviy ta'lim) joriy etildita'lim sifati va shaffoflikka e'tibor kuchaytirildi. Yoshlarga bôlgan e'tiborning kuchayganing yana bir isboti bu yurtimizda yillarga nom berish bo'lib hisoblanadi. Xususan 2008- yil yurtimizda „Yoshlar yili " va 2010-yil „Barkamol avlod yili " deb nomlanishi buning yaqqol isbotidir. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun (2016) qabul qilinib, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslari belgilandi. Yoshlar masalasiga davlat darajasida katta e'tibor berilib, yoshlarga oid islohotlar kengaytirildi, ularning ta'lim va bandlik imkoniyatlari oshirildi.

Mamlakatimizda yoshlarni o'qitishda Finlandiya, Germaniya, Singapur, AQSh tajribasidan keng foydalaniladi.Zamonaviy ta'lim tizimi innovatsion yondashuvlarga asoslanmoqda. Interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, muammoli ta'lim usullari yoshlarning faolligini oshiradi va ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Bu esa o'z navbatida yoshlarning ma'naviy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Chunki mustaqil fikrlay oladigan inson o'z hayotiy yo'lini to'g'ri tanlay oladi. Kitobxonlik yoshlar ma'naviy tarbiyasining eng muhim omillaridan biridir. Kitob insonning eng yaqin do'sti va bilim manbai hisoblanadi.

Kitob o'qigan yoshlar keng dunyoqarashga ega bo'ladi, fikrlash doirasi kengayadi va axloqiy jihatdan boyiydi.

Shu sababli ta'lim tizimida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Ommaviy axborot vositalari ham yoshlar ma'naviyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Televideniye, radio, internet nashrlari orqali tarqatilayotgan axborot yoshlar ongiga bevosita kirib boradi. Shu sababli ta'lim tizimi yoshlarni media savodxonlikka o'rgatishi, ularga foydali va zararli axborotni ajrata olish ko'nikmalarini shakllantirishi zarur.

XULOSA.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ma'naviy tarbiyasi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Har qanday davlatning kelajagi uning yosh avlodining nafaqat bilimli, balki ma'naviy yetuk, axloqan barkamol va ijtimoiy mas'uliyatni his etadigan shaxslar bo'lib yetishishiga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta'lim tizimi yoshlar ma'naviy tarbiyasining asosiy tayanchi va bosh yo'naltiruvchi kuchi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, ta'lim tizimi faqatgina bilim berish bilan cheklanib qolmasdan, balki yoshlarning dunyoqarashini shakllantirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat uyg'otish, vatanparvarlik, halollik, adolat, bag'rikenglik kabi fazilatlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida berilayotgan har bir bilim, har bir tarbiyaviy yondashuv yoshlarning ichki dunyosiga ta'sir etib, ularning shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — yoshlarni turli yot g'oyalar, ma'naviy tahdidlar va zararli axborotlardan himoya qila oladigan mustahkam ichki immunitetga ega etib tarbiyalashdir. Chunki axborot oqimi keskin kuchaygan hozirgi davrda yoshlar turli mafkuraviy ta'sirlarga tez duch kelmoqda. Shunday sharoitda ta'lim muassasalari nafaqat bilim maskani, balki ma'naviy qalqon vazifasini ham bajarishi lozim.

Ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyaning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchilarning kasbiy mahorati va shaxsiy namunasiga bog'liq. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo'l ko'rsatuvchi va ibrat bo'lishi kerak. Uning nutqi, muomalasi, hayotiy qarashlari yoshlar uchun bevosita ta'sir manbai hisoblanadi. Shu bois pedagog kadrlarni tayyorlashda ham ularning ma'naviy saviyasi, axloqiy yetukligi va ijtimoiy mas'uliyatiga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Bundan tashqari, ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyani kuchaytirishda o'quv dasturlari va darsliklarning mazmuni ham muhim ahamiyatga ega. Ularda milliy tarix, madaniyat, urf-odatlar, buyuk ajdodlar merosi, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlar keng va chuqur yoritilishi lozim. Bu esa yoshlarning o'zligini anglashiga, milliy g'urur va iftixor tuyg'usini mustahkamlashga xizmat qiladi. Yoshlar ma'naviy tarbiyasida ta'lim tizimi bilan bir qatorda oila va jamiyatning ham o'rni beqiyosdir. Ta'lim muassasasida berilgan tarbiya oilada mustahkamlanmasa, uning samarasi to'liq bo'lmaydi.

Shu sababli ta'lim tizimi oila va mahalla bilan uzviy hamkorlikda ish olib borishi zarur. Bunday integratsiyalashgan yondashuv yoshlarning har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylangan bir paytda, ta'lim tizimi bu vositalardan samarali foydalanishni o'rgatishi, ularda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishi zarur. Aks holda, yoshlar turli zararli axborotlarning qurboniga aylanishi mumkin. Shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham ma'naviy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Sport, san'at, adabiyot va boshqa ijodiy yo'nalishlarga jalb etilgan yoshlar ma'naviy jihatdan boyib boradi, ularning salbiy ta'sirlarga berilish ehtimoli kamayadi. Bu borada ta'lim muassasalari keng imkoniyatlar yaratib berishi lozim. Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimi yoshlar ma'naviy tarbiyasining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. U orqali nafaqat bilimli, balki ma'naviy barkamol, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sadoqatli va ijtimoiy faol shaxslar tarbiyalanadi. Ta'lim tizimining samarali faoliyati esa jamiyat barqarorligi, milliy taraqqiyot va kelajak avlodning farovon hayotini ta'minlashning eng muhim kafolatidir.

Shu bois, ta'lim tizimini doimiy ravishda takomillashtirish, uni zamon talablariga moslashtirish va ma'naviy tarbiya masalalariga ustuvor ahamiyat berish har bir jamiyat oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi. Faqat shundagina biz yuksak ma'naviyatli, ongli va mas'uliyatli yosh avlodni tarbiyalashga erishamiz.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – Toshkent, 2020 (yangi tahrir).
3. "Yoshlar siyosati to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ma'naviyat va ma'rifat markazi materiallari. – Toshkent, 2022–2025 yillar.
6. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti bo'yicha o'quv qo'llanmalar. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.
7. Abdullayeva B., Ismatullayev A. Pedagogika va tarbiya asoslari. – Toshkent, 2019.
8. Internet manbasi: www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
9. Internet manbasi: www.edu.uz – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti.